

ZO'RAVONLIK QURBONLARINI HUQUQIY HIMOYA QILISH BO'YICHA MILLIY VA XALQARO TAJRIBA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17899516>

Turg'unov Jamoliddin Jaloliddin o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola zo'ravonlik qurbonlarini huquqiy himoya qilishning milliy va xalqaro tajribasini tahlil qiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi qonunchilik va amaliy tizim, jumladan, himoya orderi, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, rehabilitatsiya markazlari va boshqa ijtimoiy xizmatlarning roli ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba, jumladan BMTning CEDAW Konvensiyasi, Istanbul Konvensiyasi, AQShning VAWA qonuni va boshqa rivojlangan mamlakatlarning amaliyotlari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar

Zo'ravonlik, qurbonlarni himoya qilish, milliy tajriba, xalqaro tajriba, ijtimoiy xizmatlar, himoya orderi, rehabilitatsiya markazlari, huquqiy yordam, CEDAW Konvensiyasi, Istanbul Konvensiyasi.

Zo'ravonlik zamonaviy jamiyatning eng dolzarb va keng tarqalgan ijtimoiy-huquqiy muammolaridan biri bo'lib, uning oqibatlari insonning asosiy huquq va erkinliklariga, psixologik barqarorligiga hamda ijtimoiy farovonligiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli zo'ravonlikni oldini olish, unga barham berish va ayniqsa, qurbonlarni himoya qilish davlatning ijtimoiy siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda zo'ravonlikka qarshi kurashda milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni tatbiq etish va qurbonlarga kompleks yordam ko'rsatishning global tajribasi katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda zo'ravonlikka qarshi kurashish mexanizmlarini mustahkamlash bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-son, "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-82-sonli Farmoni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy

bazaning asosini shakllantirdi. Himoya orderi tizimining joriy etilishi esa zo'ravonlik qurbonlariga tezkor, aniq va samarali himoya choralarini ko'rishga xizmat qilmoqda. Bunda zo'ravon shaxsga yaqinlashmaslik, muloqot qilmaslik va boshqa cheklovlar qo'yilishi, qurbonning xavfsizligi ta'minlanishi muhim amaliy natija hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-82-sonli farmoniga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi" tashkil etilgan bo'lib, u aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, turli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, oilaviy zo'ravonlik qurbonlari va boshqa himoyaga muhtoj guruhlar uchun kompleks ijtimoiy xizmatlar tizimini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Har bir hududda tashkil etilgan "Inson" ijtimoiy xizmatlari markazlari va ijtimoiy xodimlar tomonidan tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga quyidagi ijtimoiy xizmatlar taqdim etiladi.⁵⁵

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan beriladigan ijtimoiy yordam va xizmatlar:

1. Yo'qotilgan biometrik pasportlarini (identifikatsiya ID-kartalarini) tiklash;
2. Tug'ilganlik haqida hamda nikoh qayd etilganligi to'g'risida takroriy guvohnoma olishda ko'maklashish;
3. Nikohda turmasligi yoki nikohdan ajralganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma olishda yordam berish;
4. Yolg'iz ona arizasiga asosan qayd qilingan tug'ilganlik haqida ma'lumotnoma olish;
5. Familiya, ism, ota ismini o'zgartirganlik haqida ma'lumotnomani tiklash;
6. Yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash ishlarini tashkil qilish;
7. Monomarkaz va kasb-hunarga o'qitish markazlarida kasbga o'rgatishga yo'llanma berish;
8. Sudlarga ariza (shikoyat) va da'volar kiritish;
9. Ularning farzanlarini maktabgacha hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalariga joylashtirish bo'yicha talabnoma kiritish;
10. Yo'qotilgan bank plastik kartasini tiklash uchun tijorat banklariga murojaat qilish yuzasidan ishonchnoma tasdiqlash;

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"

11. Zarur hollarda tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash bo'yicha tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlariga talabnoma kiritish;

12. Psixologik xizmat ko'rsatish;

13. Yuridik xizmat ko'rsatish.

Ijtimoiy xodimlar:

1. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxslarning ijtimoiylashuv darajasini monitoring qilish;

2. Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni aniqlash;

3. Ularning bolalarini maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlariga joylashtirish uchun ariza qabul qilish;

4. Psixologik xizmatdan foydalanish uchun ariza qabul qilish;

5. Yuridik xizmatdan foydalanish uchun ariza qabul qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Milliy tizimda rehabilitatsiya markazlari, ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'limlari, psixologik maslahat markazlari, profilaktika inspektorlari va mahalla tizimi muhim rol o'ynaydi. Qurbonlarga psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, vaqtinchalik boshpana ajratish, rehabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integratsiya qilish kabi xizmatlar ko'lamining kengayishi ushbu sohadagi yutuqlardan biridir.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo'limlari tashkil etilgan. Ushbu markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, o'z joniga suiqaqd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko'rsatish;

- og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida zo'rlik ishlatilishiga duch kelgan xotin-qizlar huquqlarining kafolatlarini ta'minlashga ko'maklashish;

- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining xotin-qizlarning o'z joniga qasd va suiqaqd qilish holatlarini o'rganish, bunday holatlarning oldini olish, shuningdek, o'z joniga suiqaqd qilgan xotin-qizlarni normal hayotga qaytarish bo'yicha faoliyatiga yaqindan ko'maklashish;

- «Ayollar daftari»ga kiritilgan psixologik va huquqiy maslahatga muhtoj xotin-qizlarni (tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan, ijtimoiy muammolari mavjud xotin-qizlar) har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularni «Ayollar daftari»dan chiqarish choralarini ko'rish va boshqalar.

Markazga quyidagilar joylashtriliadi:

• zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va ularning voyaga etmagan farzandlari;

• o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlar.⁵⁶

Xalqaro tajribada BMTning CEDAW Konvensiyasi, “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya, Istanbul Konvensiyasi kabi hujjatlar zo‘ravonlikka qarshi kurashning universal standartlarini belgilab beradi. Ko‘plab Yevropa davlatlarida restraining order, shelter tizimlari, zo‘ravon shaxslarni majburiy reabilitatsiyaga jalb qilish, ijtimoiy xizmatlarning yagona markazlashgan tizimi samarali natija bermoqda.

Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya yoki CEDAW 1979-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro konvensiya bo‘lib, undagi ishtirokchi davlatlar ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga qarshi kurashish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Xotin-qizlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro qonun loyihasi 1981-yil 3-sentyabrda tuzilgan va 189 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan.⁵⁷

Ushbu konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha sakkizta asosiy konvensiyalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, inson huquqlari nafaqat erkak jinsiga, balki ayolga ham tegishli ekanligini ham ta’kidlanadi⁵⁸. „Xalqaro ayollar huquqlari deklaratsiyasi“⁵⁹ deb nomlanuvchi ushbu reglament erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik amalda ham, qonun oldida ham ta’minlanishi lozimligini ta’kidlab keladi. Ishtirokchi davlatlar ayollarga nisbatan kamsitishning barcha turlari va shakllarini aniqlash, ularga qarshi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, jabrlangan shaxslarga yordam berish va zo‘ravonlik harakatlarini amalga oshirgan aybdor shaxslarni jazolash majburiyatini oladi.

AQShda Violence Against Women Act (VAWA) qonuni oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar, tibbiy xizmatlar va ijtimoiy xizmatlarning integratsiyalashgan yondashuvini shakllantirgan. Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa Osiyo davlatlarida kiberzo‘ravonlikka qarshi qat’iy qonunlar, bolalar uchun himoya markazlari va davlat tomonidan bepul huquqiy yordam tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

⁵⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 19.05.2021 йилдаги ПК-5116-сон

⁵⁷ „United Nations Treaty Collection“. United Nations.

⁵⁸ „Birleşmiş Milletler Kadınlara Karşı Her Türü Ayrımcılığın Ortadan Kaldırılmasına Dair Sözleşme (Öngörülen Haklar ve Öngörülen Usuller“. ÜHF Mecmuası, Cilt 62, Sayı 1-2, Yıl 2004.

⁵⁹ „OHCHR | Membership“. *ohchr.org*.

Milliy va xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston amaldagi qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga mos ravishda kengaytirgan bo'lsa-da, amaliy tizimni yanada mustahkamlash, xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, zo'ravonlik haqida xabar berish mexanizmlarini soddalashtirish va ijtimoiy ongda mavjud stereotiplarni kamaytirishga ehtiyoj mavjud. Xalqaro amaliyotdan o'rganilgan tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish, ayniqsa, boshpana tizimlarini rivojlantirish, zo'ravon shaxslarni rehabilitatsiyaga jalb qilish va qurbonlar bilan ishlashda multidissiplinar yondashuvni kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, zo'ravonlik qurbonlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha milliy va xalqaro tajribalar integratsiyasi himoya tizimining yanada samarali va barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur yo'nalishda qonunchilikni takomillashtirish, amaliy mexanizmlarni kuchaytirish hamda ijtimoiy ongni o'zgartirish orqali zo'ravonlikka qarshi kurashning yanada yuqori samaradorligiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida".
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 19.05.2021 йилдаги ПҚ-5116-сон
3. "United Nations Treaty Collection". United Nations.
4. "Birleşmiş Milletler Kadınlara Karşı Her Tür lü Ayrımcılığın Ortadan Kaldırılmasına Dair Sözleşme (Öngörülen Haklar ve Öngörülen Usuller". ÜHF Mecmuası, Cilt 62, Sayı 1-2, Yıl 2004.
5. "OHCHR | Membership". *ohchr.org*.